

ANTONIM SO'ZLARNING SADRIDDIN SALIM BUXTORIY IJODIDAGI IFODASI

Mehmonova Sojida Astanaquli qizi

Buxoro davlat universiteti, o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi mustaqil
tadqiqotchisi +998978557756

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Buxoro farzandi Sadreddin Salim Buxoriyning so'z qo'llash mahorati, xususan, ijodkor ijodida antonimiya hodisasining qo'llanilishi haqida so'z boradi. Har bir nazariy fikr shoir ijodidan saralab olingan materiallar bilan keng dalillangan va munosabat bildirilgan.*

Tayanch so'zlar: *antonimlik, lug'aviy antonimlik, kontekstual (matniy) antonimlik, grammatik antonimlik.*

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev ilm-fanni rivojlantirish borasida ilm-fan fidoyilariga katta ishonch bildirmoqda va bu borada qator islohotlar olib borilayotganligiga quyidagi fikrlari yaqqol dalildir. "Mamlakatimizda ilm-fanni dunyoda hech kimdan kam bo'limgan darajada rivojlantirish uchun sizlarga va barcha olimlar, ilmiy jamoalarga zamonaviy shart-sharoitlarni yaratib berish biz uchun ham qarz, ham farzdir" [1].

Ma'lumki, antonimlik til sathining barcha bo'limlari uchun xos hodisa bo'lib fonetik, shuningdek, barqaror birliklarda ham mazkur hodisa keng uchraydi. Mazkur hodisada yuqorida sanalgan birliklar mazmunan – mantiqan zid tushuncha va tasavvurlarni yuzaga keltiradi. Antonimlik adabiyotshunoslikda antiteza hodisasi, tazod san'atining yuzaga kelishida ham muhim o'ringa ega.

Antonim hodisasi o'zbek tilshunosligida XX asrda keng tadqiq etilgan [2]. Shuningdek, mazkur hodisa uchun amaliy material bo'lib xizmat qiladigan lingvistik lug'at, ya'ni antonimlar lug'ati ham tuzilgan [3].

Antonimlar badiiy nutqning ifodafiyligi, ekspressivligi, ta'sirchanligini ta'minlashda qulay vositalardan biri [4]. Ma'lumki, Sadreddin Salim Buxoriy ko'pgina iste'dodli shoirlar singari ijodi davomida antonim so'zlarga alohida e'tibor bilan yondashgan. Sadreddin Salim Buxoriy antonimlardan juda ko'p va o'rinali foydalanib she'riy misralar yaratganligiga guvoh bo'lamicha.

1 Mirziyoyev Sh.M "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" Toshkent- "O'zbekiston"-2017 166-180-bet

2 Исабеков Б.О. Лексическая антонимия в современном узбекском языке. АКД. – Т., 1973;

Шукров Р. Ўзбек тилида антонимлар. – Т.: Фан, 1977.

3 Раҳматуллаев Ш., Маматов Н., Шукров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.

4 Юлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. ДДА. – Т., 2009. 33-b.

Antonimiya kontekstdagi ikkita leksik birlik yoki so'zlar o'rtasidagi qarama-qarshi semantik munosabatni ifodalaydi. Tilshunos S.J.Smit o'zining "Sinonimiya va antonimiya" nomli asarida antonimiyanı 3guruhga bo'ladi:

- a) lug'aviy antonimlar;
- b) grammatik antonimlar;
- d) kontekstual antonimlar;

O'zaro zid ma'noli so'z va qo'shimchalarga antonimlar deyiladi. So'z maqomidagi antonimlar esa affiks antonimlar sanaladi [5]. Antonimlar doimo ikki qarama-qarshi a'zodan iborat bo'ladi. Birini aytsak, ikkinchisini xayolimizga keltiramiz. Masalan, Sovuq deyishimiz bilan issiq esimizga tushadi. Sovuq va issiq so'zlari antonim juftliklardir. Antonimlik hodisasi bir so'z turkum doirasida kuzatiladi.

Lug'aviy antonimiya- leksemalarning bir-biriga zid ma'no anglatishi asosida guruhlanishi. Oq va qora, qalin va yupqa kabi. Lug'aviy antonimlar sifat so'z turkumida keng tarqalgan, ot, fe'l, ravish so'z turkumlarida kamroq uchraydi [6].

Grammatik antonimiya - qo'shimchalar o'rtasidagi zid ma'nolilik tushuniladi. Asosan, antonimik sifat so;z turkumidagi qo'shimchalarda uchraydi. Masalan, suvli-suvsiz, bulardan birinchisi asosdan anglashilgan narsaga egalik ma'nosini, ikkinchisi shu narsaga ega emaslik ma'nosini ifodalaydi.

Kontekstual antonimiya- ma'lum bir muallif tomonidan yozilgan matndagina antonim bo'ladi, kontekstdan tashqarida antonimlikni hosil qilmaydigan so'zlardir. Masalan, otliq-piyoda, shirin-sho'r, tor-daryo, johil-oqil kabi. Mazkur so'zlarning "O'zbek tili antonimlarning izohli lug'ati"da mavjud emasligi ham ularning matniy antonimligidan dalolat beradi [7].

5 A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupov "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darslik Toshkent-"ILM ZIYO"-2015

6 Jamolxonov H."Hozirgi o'zbek adabiy tili" Toshkent- "Talqin"-2005.

Sadriddin Salim Buxoriy she'riyatida antonimlardan unumli foydalangan. Bu esa shoirning poetik mahoratidan dalolat bera oladi. Chunki ijodkor aytmoqchi bo'lgan fikrini bir-biriga zid tushunchalar asosida yoritishi shunchakantonim i oddiy hol emas, balki o'ziga xos mehnatni, keng mushohadani talab etishi bilan izohlanadi. Sadriddin Salim Buxoriyning "Ro'molcha" to'plamidagi so'zlar:

1) lug'aviy antonimlik: podshoh-qul ("El mehri"), tun-kun ("Onamni topshirdik tuproqqa") , tug'ilmoq-o'lmoq ("Xotira kuni"), xon-qul ("Shahri Xaybar"), yer osti-yer usti ("Shahri Xaybar"), shom-sahar ("Shahri Xaybar"), kecha-kunduz ("Teraklarning uchlariga"), o'ng-tush, xayol-xush ("Dilijon"), katta-kichik ("Katta aravaning ketidan"), past-tepa ("Gar bosh pastga -ketsa,nogahon")

Zaminga sig'inib tun-u kun

Unga baxsh etarkan rang, hayot

Men bildim Zaminni ne uchun

Ona-Yer atarkan odamzod

Sino, Al-Xorazmiyga,
Sobir Rahimga qulluq!
Bular uchun va lekin
Tug'ilmoq bor, o'lmoq yo'q.

2) kostekstual antonimlik: ehrom-soya ("El mehri"), arvoh-tirik ("Ko'milgan hovuzlarga marsiya") , qushcha- bo'ri, beozor-yovuz ("Hamrobibi ertagi"), oltin-qum, asr-zum ("Shahri Xaybar"), shirin-sho'r, zamin-xok ("Bir misra she'r sharhi"), kun-oy ("Xazon yaprog'iday poyingdadurman"), daryo-hovuz ("Yuragim misoli Buxoro"), suv-muz ("Seni sog'inganimni so'zga aytmadim"), sipoh-podshoh, jahongir-payg'ambar ("Sitorabonu allasi"), yelka-past ("Gar bosh pastga ketsa nogahon"), tosh-bosh, nishondor-poydor ("Hayrat Buxoriy"), uvol-savob ("Ustod Ayniyga"), sog'-gumroh, amir-olloh, xomushlik-shirinkor ("Shirinkor"), xavf-u xatar- bexavotir ("Buxoroda tarqalgan gap").

Endi ushbu misollarni misralar orqali ko'rib chiqamiz:

Marmartoshda bo'lsaydi arvoh
Etar edi bezovta har kech.
Kun ko'rmasdik loqayd, beparvo,
Tiriklarni ko'marlarmi hech.
Bunda oltin-qumga qorishiq
Bund asr zumga qorishiq.
Dalil, tarix qumga qorishiq,
Hikmat tuydim shahri Xayarda.
Xazon yaprog'iday poyingdadurman,
Barobar kun ham oyingdadurman,
Xoh nazar et, xoh etma ixtiyorin,
Sabrda misli tosh soyingdadurman.

Tadqiqotchilarning fikricha, lug'aviy antonimlardan ko'ra kontekstual (matniy) antonimlar kuchli aktuallashib, tasvir ta'sirchanligiga xizmat qiladi [8]. Yuqoridagi misollar tahlili ko'rsatadiki, shoир ijodida kontekstual antonimlar lug'aviy antonimlardan son jihatdan ko'p.

Sadriddin Salim Buxoriy ijodida antonimlarning turli ko'rinishlaridan o'rini foydalanib bir-biridan mazmundor, shu bilan birga, o'ynoqi misralar yaratganki, mazkur holat shoир she'rlarining o'qishli bo'lishini ta'minlashga qo'l kelgan, deya olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T.: "Talqin", 2005. – 272b.

Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Тошкент: ЎзМЭ, 2002. 124 6.

Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томли. Тошкент: Ўзб. Мил. Энцик., 2006–2008.

Йўлдошев М.М. Бадиий матн ва унинг лингвопоетик тахлили асослари. - Тошкент: Фан, 2007.- 123б.

7 Раҳматуллаев Ш., Маматов Н.,Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларнинг изоҳли луғати. –Т.; Ўқитувчи, 1980.

8 Юлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. ДДА. – 2009,34-bet.